3. Ikkita bir xil zaryadlangan sharcha uzunliklari bir xil bo‘lgan iplar bilan bir nuqtada osilgan. Bunda iplar α burchakka ajralishgan. SHarchalarni zichligi

$\rho = 800 \frac{\text{K}\cdot\text{g}}{\text{m}^3}$ bo‘lgan yog‘ga botirdilar. Agar sharchalar yog‘ga botirilgandan keyin

xam iplarning ajralish burchagi o'zgarmay qolsa, yogning Dielektrik singdiruvchanligi ε aniqlansin. SHarchalar materialining zichligi $\rho = 1600 \frac{\text{kg}}{\text{m}^3}$.

4. Xar birining massasi $m=lg$ dan bo'lgan ikkita sharcha berilgan. Zaryadlarining o'zaro itarishish kuchi sharchalarning Nyuton qonuni buyicha o'zaro tortishish kuchi bilan muvozanatlashishi uchun xar bir sharchaga qanday Q zaryad berilishi kerak? SHarchalar moddiy nuqtalar sifatida qaralsin.

5. Vodorod atomining elementar nazariyasida elektron Yadro atrofida doiraviy orbita buylab aylanadi, deb qabul kilinadi. Agar orbita radiusi $r = 53 \text{ pm}$ bo'lsa, elektronning v tezligi xamda elektronning aylanish chastotasi n aniqlansin.

6. Ikkita $Q_1=1 \text{ mkKl}$ va $Q_2=-Q_1$ nuqtaviy zaryadlar orasidagi masofa 10 sm ga teng. Birinchi zaryaddan $r_1=6 \text{ sm}$ va ikkinchisidan $r_2 = 8 \text{ sm}$ masofada bo'lgan $Q = 0,1 \text{ mkKl}$ nuqtaviy zaryadga ta'sir etuvchi F kuch aniqlansin.

7. Tomoni $a = 10 \text{ sm}$ bo'lgan turri oltiburchakning uchlarida $Q, 2Q, 3Q, 4Q, 5Q, 6Q$ ($Q = 0,1 \text{ mkKl}$) nuqtaviy zaryadlar joylashgan. Oltiburchak tekisligida yotuvchi va uning uchlaridan teng uzaklikda joylashgan Q nuqtaviy zaryadga ta'sir etuvchi F kuch topilsin.

8. Bir xil utkazuvchanlikli, zaryadlangan ikkita shar bir-biridan $r = 60 \text{ sm}$ masofada turibdi. SHarlarning itarishish kuchi $F_1=70 \text{ mkN}$. SHarlar bir-biriga tekkizilib, sungra oldingi masofaga uzaklashtirilgach itarishish kuchi ortdi va $F_2=160 \text{ mkN}$ bo'ldi. Bir-birlariga tekkizilguncha sharlarda bo'lgan Q_1 va Q_2 zaryadlar xisoblansin. SHarlarning diametrlari ular orasidagi masofadan ko'p marta kichik deb xisoblansin.

9. Bir xil utkazuvchanlikli, zaryadlangan ikkita shar bir-biridan $r=30 \text{ sm}$ masofada turibdi. SHarlarning tortishish kuchlari $F_1=90 \text{ mkN}$. SHarlar bir-biriga tekkizilib, oldingi masofaga uzaklashtirilgandan keyin ular $F_2=160 \text{ mkN}$ kuch bilan itarishisha boshlashdi. Bir-birlariga tekkizilguncha sharlarda bo'lgan Q_1 va Q_2 zaryadlar aniqlansin. SHarlarning diametrlari ular orasidagi masofadan ko'p marta kichik deb xisoblansin.

10. Ikkita musbat Q va $4Q$ nuqtaviy zaryadlar bir-biridan $l = 60 \text{ sm}$ masofada maxkamlangan. Muvozanat vaziyatida bo'lishi uchun uchinchi Q_1 zaryadni berilgan zaryadlar orqali utuvchi to'g'ri chiziqlarning qaysi nuqtasida urnatish kerak? Agar zaryad faqat maxkamlangan zaryadlar orqali utuvchi to'g'ri chiziq buylab xarakatlana olsa, muvozanat turrun bo'lishi uchun zaryad qanday ishorali bo'lishi kerakligi ko'rsatilsin.

11. Erkin $Q_1=180$ nKl va $Q_2=720$ nKl zaryadlar orasidagi masofa $l = 60$ sm. Zaryadlar tizimi muvozanatda bo'lishi uchun, uchinchi Q_1 zaryadni urnatish lozim bo'lgan zaryadlar orqali utuvchi to'g'ri chiziqdagi nuqta aniqlansin. Zaryadning kattaligi va ishorasi aniqlansin. Muvozanat turg'un bo'ladimi yoki turg'unmas mi?

12. Xar biri $Q=1$ nKl dan bo'lgan uchta zaryad teng tomonli uchburchakning uchlarida joylashgan. Tortishishi zaryadlarning itarish kuchlarini muvozanatga keltirishi uchun uchburchakning markaziga qanday Q_1 manfiy zaryad urnatish kerak? Bu muvozanat turg'un bo'ladimi?

13. Kvadratning uchlarida x,ar biri $Q=0,3$ nKl dan bo'lgan bir xil zaryadlar bor. Musbat zaryadlarning o'zaro itarishish kuchlari manfiy zaryadning tortishish kuchi bilan muvozanatga keltirilishi uchun kvadratning markaziga qanday Q_1 manfiy zaryad urnatish kerak?

Nuqtaviy zaryadning tekis taqsimlangan zaryad bilan o'zaro ta'siri

14. Uzunligi $L=10$ sm bo'lgan ingichka tayoqcha bir tekis zaryadlangan. Zaryadning chiziqli zichligi $t=1$ mkKl/m. Tayoqcha o'qining davomida, Yaqin uchidan $a = 20$ sm masofada $Q = 100$ nKl li nuqtaviy zaryad turibdi. Zaryadlangan tayoqcha va nuqtaviy zaryadning o'zaro ta'sir kuchi F aniqlansin.

15. Uzun ingichka tayoqcha $g = 10$ mkKl/m chiziqli zaryad zichligi bilan bir tekis zaryadlangan. Tayoqcha o'qining davomida, Yaqin uchidan $a = 20$ sm masofada $Q = 10$ nKl nuqtaviy zaryad turibdi. Zaryadlangan tayoqcha va nuqtaviy zaryadning ta'sir kuchi F aniqlansin.

16. Ingichka juda uzun tayoqcha $t= 10$ mkKl/m chiziqli zaryad zichligi bilan bir tekis zaryadlangan. Uchidan tayoqcha o'qiga utkazilgan tiklikda (perpendikulYar)da $Q=10$ nKl nuqtaviy zaryad turibdi. Tayoqcha uchidan zaryadgacha bo'lgan masofa $a = 20$ sm. Zaryadlangan tayoqcha va nuqtaviy zaryadning ta'sir kuchi F topilsin.

17. Uzunligi $l=20$ sm bo'lgan ingichka tola $t=10$ nKl/m chiziqli zichlik bilan zaryadlangan. Urtasidan utgan tiklikda, toladan $a=10$ sm masofada $Q=1$ nKl nuqtaviy zaryad turibdi. SHu zaryadga zaryadlangan tola tomonidan ta'sir etuvchi F kuch xisoblansin.

18. Uzun ingichka tayoqcha $t=10$ mkKl/m chiziqli zichlik bilan bir tekis zaryadlangan. Uning urtasiga Yaqin joydan $a=20$ sm masofada joylashgan $Q = 10$ nKl nuqtaviy zaryadga ta'sir etayotgan F kuch qanday bo'ladi?

19. Ingichka cheksiz uzun tola 90° burchak ostida egilgan. Tolada $t=1$ mkKl/m chiziqli zichlik bilan tekis taqsimlangan zaryad bor. Tomonlaridan birining davomida burchakdan $a = 50$ sm uzoqlikda joylashgan, $Q = 0,1$ mkKl nuqtaviy zaryadga ta'sir etayotgan F kuch aniqlansin.

20. Radiusi $R=10$ sm bo'lgan ingichka x,alkada tekis taqsimlangan $Q = 0,1$ mkKl zaryad bor. Xalqaning urtasidan uning tekisligiga utkazilgan tiklikda $Q_1=10$ nKl nuqtaviy zaryad turibdi. Agar Q_i nuqtaviy zaryad xalqa markazidan: 1) $t=20$ sm; 2) $/2=2$ m uzoqlikda bo'lsa, zaryadlangan xalqa tomonidan unga ta'sir etayotgan F kuch aniqlansin.

21. Radiusi $R= 10$ sm bo'lgan ingichka Yarim xalqada $r= 1$ mkKl/m chiziqli zichlik bilan tekis taqsimlangan zaryad bor. Yarim xalka egriligining markazida $Q = 20$ nKl zaryad turibdi. Nuqtaviy zaryad va zaryadlangan Yarimxalqaning o'zaro ta'sir kuchi F aniqlansin.

22. Radiusi $R=10$ sm bo'lgan ingichka xalqada zaryad $t = 1$ nKl/m chiziqli zichlik bilan tekis taqsimlangan. Xalqaning markazida $Q = 0,4$ mkKl zaryad bor. Xalqani chuzib kengaytiruvchi F kuch aniqlansin. Xalqadagi zaryadlarning o'zaro ta'siri inobatga olinmasin.

Nuqtaviy zaryadlarning potensial energiyasi va maydon potentsiali

23. Maydonning muayyan nuqtasida turgan $Q=10$ nQl nuqtaviy zaryad $P=10$ mkJ potensial energiyaga ega. Maydonning shu nuqtasidagi potensial ϕ topilsin.

24. $Q=20$ nQl zaryadni maydonning ikki nuqtasi orasida ko'chirishda tashqi kuchlar tomonidan $A=4$ mkJ ish bajarilgan. Maydon kuchlarining ishi A_1 va maydonning shu nuqtalari orasidagi potentsiallar farqi $\Delta\phi$ aniqlansin.

25. $Q_1 = -0,2$ mkQl va $Q_2 = 0,5$ mkQl zaryadlardan mos ravishda $r_1 = 15$ sm va $r_2 = 25$ sm uzoqlikdagi elektr maydon potentsiali aniqlansin. Echim mavjud bo'lishi uchun zaryadlar orasidagi minimal va maksimal masofalar qanday bo'lishi lozimligi ham aniqlansin.

26. $Q_1 = 1$ mkQl va $Q_2 = -1$ mkKl zaryadlar bir-biridan $d= 10$ sm masofada turibdi. Birinchi zaryaddan $r = 10$ sm uzoqlikdagi Q_1 dan Q_2 yo'nalishiga tik va birinchi zaryaddan o'tadigan to'g'ri chiziqda yotuvchi nuqtadagi maydon potentsiali ϕ va kuchlanganlik E aniqlansin.

27. Bir-biridan $d = 10$ sm masofada turgan ikkita $Q_1 = 100$ nQl va $Q_2 = 10$ nQl nuqtaviy zaryadlar tizimining potensial energiyasi P hisoblansin.

28. Tomonlarining uzunligi $a=10$ sm dan bo'lgan teng tomonli uchburchakning uchlarida joylashgan uchta $Q_1 = 10$ nQl, $Q_2 = 20$ nQl va $Q_3 = -30$ nQl nuqtaviy zaryadlar tizimining potensial energiyasi P topilsin.

29. Tomonlarining uzunligi $a=10$ sm dan bo'lgan kvadratning uchlarida joylashgan to'rtta bir xil $Q = 10$ nQl nuqtaviy zaryadlar tizimining potensial energiyasi P qanday bo'ladi?

30. Tomonlarining uzunligi $a=10$ sm dan bo'lgan kvadratning uchlarida joylashgan to'rtta nuqtaviy zaryadlar tizimining potensial energiyasi aniqlansin. Zaryadlarning modullari bir xil $Q = 10$ nQl, lekin ularning ikkitasi manfiy. Zaryadlar joylashishining ikkita mumkin bo'lgan holi qaralsin.

31. Maydonni bir-biridan $d=12$ sm masofada turgan ikkita $+2Q$ va $-Q$ nuqtaviy zaryad hosil qilgan. Tekislikda potentsiali nolga teng bo'lgan nuqtalarning geometrik o'rni aniqlansin (potentsiali nol bo'lgan chiziqning tenglamasi yozilsin).

Chiziqli taqsimlangan zaryadlar maydonining potentsiali

32. Zaryad $R = 10$ sm radiusli ingichka halqada $\tau = 10$ nQl/m chiziqli zichlik bilan bir tekis taqsimlangan. Halka o'kida yotuvchi va markazidan $a=5$ sm masofada joylashgan nuqtadagi potensial φ aniqlansin.

33. Zaryad ingichka to'g'ri o'tkazgich kesmasida $\tau = 10$ nQl/m chiziqli zichlik bilan bir tekis taqsimlangan. SHu zaryadning o'tkazgich o'qida va kesmaning Yaqin uchidan uning uzunligiga teng masofada joylashgan nuqtada hosil qiladigan potentsiali φ hisoblansin.

34. Uzunligi $l=10$ sm bo'lgan ingichka tayoqchada tekis taqsimlangan $Q = 1$ nQl zaryad bor. Tayoqcha o'kida yotuvchi va uning Yaqin uchidan $a=20$ sm masofada joylashgan nuqtadagi elektr maydon potentsiali φ aniqlansin.

35. Ingichka tayoqchalar tomonining uzunligi a bo'lgan kvadrat hosil qiladilar. Tayoqchalar $\tau = 1,33$ nQl/m chiziqli zichlik bilan zaryadlanishgan. Kvadratning markazidagi potensial φ topilsin.

36. Cheksiz uzun ingichka to'g'ri tolada $\tau = 0,01$ mKl/m chiziqli zichlik bilan tola uzunligi bo'ylab bir tekis taqsimlangan zaryad bor. Toladan $r_1=2$ sm va $r_0 = 4$ sm masofalarda joylashgan maydonning ikki nuqtasi orasidagi potentsiallar farqi $\Delta\varphi$ aniqlansin.

Sirt bo'ylab taqsimlangan zaryadlar maydonining potentsiali

37. Yupqa aylana shaklidagi plastina tekislik bo'ylab bir tekis taqsimlangan $Q=1$ nKl zaryadga ega. Plastinaning radiusi $R=5$ sm. Ikki nuqtadagi elektr maydonning potentsiali φ aniqlansin: 1) plastina markazida; 2) plastina tekisligiga tik o'qda yotuvchi va plastina markazidan $a=5$ sm uzoqda joylashgan nuqtada.

38. Radiuslari $R_1=3$ sm va $R_2=6$ sm bo'lgan ikkita konsentrik metall sfera bor. Sferalar orasidagi bo'shliq parafin bilan to'ldirilgan. Ichki sferaning zaryadi $Q_1=-1$ nKl, Tashqisidagi $Q_2=2$ nKl. Sferalar markazidan: 1) $r_1=1$ sm; 2) $r_2=5$ sm; 3) $r_3=9$ sm masofadagi elektr maydon potentsiali φ topilsin.

39. $R=5$ sm radiusli metall sharda $Q=1$ nC zaryad bor. Shar $d=2$ sm qalinlikdagi ebonit katlami bilan o'ralgan. Sharining markazidan: 1) $r_1=3$ sm; 2) $r_2=6$ sm; 3) $r_3=9$ sm masofadagi elektr maydon potentsiali φ hisoblansin. $\varphi(r)$ bog'lanishning grafigi tuzilsin.

40. Radiusi $R=10$ sm bo'lgan metall shar $\varphi_1=300$ V potentsialgacha zaryadlangan. Quyidagi ikki hol uchun bu sharining potentsiali aniqlansin: 1) uni $R_2=15$ sm radiusli o'tkazuvchan ulangandan sferik qobiq bilan o'rab va qisqa payt u bilan o'tkazgich orqali keyin; 2) agar uni $R_2=15$ sm radiusli erga ulangan o'tkazuvchan sferik qobiq bilan o'ralsa.

41. Zaryad cheksiz tekislikda $\sigma=10$ nC/m² sirt zichligi bilan bir tekis taqsimlangan. Maydonning biri tekislikda joylashgan, boshqasi esa tekislikdan $d=10$ sm uzoqlikda bo'lgan ikki nuqtasi orasidagi potentsiallar farqi $\Delta\varphi$ aniqlansin.

42. Agar havoning teshilishi ro'y beradigan maydon kuch-langanligi $E=3$ MV/m bo'lsa, $R=10$ sm radiusli Yakkalangan metall sharni qanday φ potentsialgacha zaryadlash mumkinligi aniqlansin. SHuningdek, teshilish oldidan elektr zaryadlarining maksimal sirt zichligi σ topilsin.

43. Ikkita cheksiz parallel tekislik bir-biridan $d=0,5$ sm masofada turibdi. Tekisliklarda zaryad $\sigma_1=0,2$ mKl/m² va $\sigma_2=-0,3$ mKl/m² sirt zichliklari bilan bir tekislikda taqsimlangan. Tekisliklar orasidagi potentsiallar farqi U aniqlansin.

44. Ikkita cheksiz parallel tekislik bir-biridan $d=1$ sm masofada turibdi. Tekisliklarda $\sigma=0,2$ mKl/m² va $\sigma_2=0,5$ mKl/m² zichliklar bilan tekislik bo'ylab bir tekis taqsimlangan zaryadlar bor. Tekisliklar orasidagi

potensiallar
farqi U topilsin.

45. Diametri $d = 2 \text{ sm}$ bo'lgan metall sharcha $\varphi = 150 \text{ V}$ potensialgacha manfiy zaryadlangan. Sharcha sirtida nechta elektron bor?

46. $\varphi = 20 \text{ V}$ potensialgacha zaryadlangan yuzta bir xil simob tomchisi qo'shilib bitta katta tomchi hosil qildi. Hosil bo'lgan tomchining potentsiali φ_1 qanday?

47. Har birining radiusi $R = 10 \text{ sm}$ dan bo'lgan ikki yumaloq metall plastina turli ismli zaryadlangan, bir-birining qarshisida parallel joylashgan va $F = 2 \text{ mN}$ kuch bilan o'zaro tortishishadi. Plastinalar orasidagi masofa $d = 1 \text{ sm}$. Plastinalar orasidagi potensiallar farqi U aniqlansin.

O'zgaruvchan sferaning elektr sig'imi

48. $R = 1 \text{ sm}$ radiusli Yakkalangan metall shar.ning elektr sig'imi C topilsin. Javob ($1,11 \text{ pF}$)

49. Suvga botirilgan $R = 2 \text{ sm}$ radiusli metall sferaning elektr sig'imi C aniqlansin. Javob (180 pF)

50. Erni $R = 6400 \text{ km}$ radiusli shar. deb qabul qilib, uning elektr sig'imi C hisoblansin. Javob (712 mKl)

51. Radiuslari $R_1 = 2 \text{ sm}$ va $R_2 = 6 \text{ sm}$ bo'lgan 2 ta metall shar. sig'imini inobatga olmaslik mumkin bo'lgan o'tkazgich bilan tutashtirilgan. SHarlarga $Q = 1 \text{ nKl}$ zaryad berilgan. SHarlardagi zaryadning sirt zichligi σ topilsin. Javob ($49,8 \text{ nKl/m}^2$)

52. $R_1 = 6 \text{ sm}$ radiusli shar $\varphi_1 = 300 \text{ V}$ potensialgacha, $R_2 = 54 \text{ sm}$ radiusli shar esa $\varphi_2 = 500 \text{ V}$ potensialgacha zaryadlangan. SHarlarning metall o'tkazgich bilan ulangandan keyingi potentsiali φ aniqlansin. Ulovchi o'tkazgichning sig'imi inobatga olinmasin. Javob (380 V)

Yassi kondensatorning elektr sig'imi

53. Qoplamalarining yuzasi $S = 100 \text{ sm}^2$, ular orasidagi masofa $0,1 \text{ mm}$ bo'lgan slyudali Yassi kondensatorning elektr sig'imi C aniqlansin. Javob ($6,2 \text{ nF}$)

54. $U = 600 \text{ V}$ potensiallar farqigacha zaryadlangan Yassi kondensator qoplamalari orasida 2 ta dielektrik qatlami bor: qalinligi $d_1 = 7 \text{ mm}$ bo'lgan shisha va qalinligi $d_2 = 3 \text{ mm}$ bo'lgan ebonit. Kondensator har bir qoplamasining yuzasi

$S = 200 \text{ sm}^2$. 1) kondensatorning sig'imi C ; 2) har bir qatlamdagi maydon siljishi D , kuchlanganligi E va potensial tushishi $\Delta\varphi$ topilsin. Javob [1) 88,5 pF; 2) $D_1 = D_2 = 2,66 \text{ mkKl/m}^2$; $E_1 = 42,8 \text{ kV/m}$; $E_2 = 100 \text{ kV/m}$; $\Delta\varphi_1 = \Delta\varphi_2 = 300 \text{ V}$]

55. Yassi kondensator qoplamalari orasidagi masofa $d = 1,33 \text{ m}$ qoplamalarining yuzasi $S = 20 \text{ sm}^2$. Kondensator qoplamalari orasidagi bo'shliqda dielektriklarning 2 ta qatlami bor: qalinligi $d_1 = 0,7 \text{ mm}$ li slyuda va qalinligi $d_2 = 0,3 \text{ mm}$ li ebonit. Kondensatorning elektr sig'imi C aniqlansin.

56. Yassi kondensator qoplamalarida zaryad $\tau = 0,2 \text{ mkKl/m}^2$ sirt zichligi bilan bir tekis taqsimlangan. Qoplamalar orasidagi d masofa 1 mm ga teng. Qoplamalar orasidagi masofa 3 mm gacha orttirilganda qoplamalardagi potentsiallar farqi qanchaga o'zgaradi? Javob (22,6 V)

57. Yassi kondensatorga, uning qoplamalariga jipslashib turadigan qilib qalinligi $d = 1 \text{ sm}$ bo'lgan parafin taxtachani kiritdilar. Dastlabki sig'imni hosil qilish uchun qoplamalar orasidagi masofani qanchaga orttirish kerak? Javob (0,5 sm)

58. Yassi kondensatorning elektr sig'imi 1,5mkF ga teng. Qoplamalari orasidagi masofa $d = 5 \text{ mm}$. Agar pastdagi qoplamaga $d_1 = 3 \text{ mm}$ qalinlikdagi ebonit taxtachasi qo'yilsa, kondensatorning elektr sig'imi C qanday bo'ladi? Javob (2,5 mkF)

59. Yassi kondensator qoplamalari orasida zich yopishib turgan shisha taxtacha bor. Kondensator $U_1 = 100 \text{ V}$ potentsiallar farqigacha zaryadlangan. Agar shisha taxtacha kondensatordan chiqarib olinsa, potentsiallar farqi U_2 qanday bo'ladi? Javob (700V)

Sferik kondensatorning elektr sig'imi.

60. Radiuslari $R_1 = 2 \text{ sm}$ va $R_2 = 2,1 \text{ sm}$ bo'lgan 2 ta konsentrik metall sfera sferik kondensatorni hosil qiladi. Agar sferalar orasidagi bo'shliq parafin bilan to'ldirilgan bo'lsa, kondensatorning elektr sig'imi C aniqlansin.

61. Kondensator 2 ta konsentrik sferadan tashkil topgan. Ichki sferaning radiusi $R_1 = 10 \text{ sm}$, tashqisidiki $R_2 = 10,2 \text{ sm}$. Sferalar orasidagi soha parafin bilan to'ldirilgan. Ichki sferaga $Q = 5 \text{ mkKl}$ zaryad berilgan. Sferalar orasidagi potentsiallar farqi U aniqlansin. Javob (4,41 kV)

Kondensatorlarni ulash.

62. $U = 600 \text{ V}$ potentsiallar farqigacha zaryadlanib, kuchlanish manbaidan uzilgan

havo kondensatoriga parallel ravishda shunday o'lchamli va shaklli, lekin dielektrikli (chinni) zaryadlanmagan 2-kondensator ulandi. Agar 2-kondensator ulangandan keyin potentsiallar farqi $U_1 = 100 \text{ V}$ gacha kamaygan bo'lsa, chinnining dielektrik singdiruvchanligi ε aniqlansin. Javob (5)

63. $C_1 = 3 \text{ mkF}$ va $C_2 = 6 \text{ mkF}$ sig'imli kondensatorlar o'zaro ulangan va $\varepsilon = 120 \text{ V}$ EYUKli batareyaga biriktirilgan. Agar kondensatorlar: 1) parallel; 2) kema-ket ulangan bo'lsa, kondensatorlardagi Q_1 va Q_2 zaryadlar va ularning qoplamalari orasidagi U_1 va U_2 potentsiallar farqi aniqlansin. Javob [1) 360 mkKl; 720 mkKl; 120V; 2) 240mkKl; 80 V; 40V]

64. $C_1 = 0,2 \text{ mkF}$ elektr sig'imli kondensator $U_1 = 320 \text{ V}$ potentsiallar farqigacha zaryadlangan. Uni $U_2 = 450 \text{ V}$ potentsiallar farqigacha zaryadlangan 2-kondensator bilan parallel ulanganlaridan keyin undagi kuchlanish 400 V gacha o'zgardi. 2-kondensatorning sig'imi C_2 hisoblansin.

65. $C_1 = 0,6 \text{ mkF}$ elektr sig'imli kondensator $U_1 = 300 \text{ V}$ potentsiallar farqigacha zaryadlangan va sig'imi $C_2 = 0,4 \text{ mkF}$ bo'lgan $U_2 = 150 \text{ V}$ potentsiallar farqigacha zaryadlangan 2-kondensator bilan ulangan. 1-kondensator qoplamasidan 2-sinikiga oqib o'tadigan ΔQ zaryad topilsin.

66. 3 ta bir xil Yassi kondensator ketma-ket ulangan. Bunday kondensatorlar batareyasining elektr sig'imi $C = 89 \text{ pF}$. Har bir qoplamaning yuzasi $S = 100 \text{ sm}^2$. Dielektrik –shisha. Shishaning qalinligi qanday? Javob (2,32 mm)

Zanjirning bir qismi uchun Om qonuni

67. O'tkazgichdagi tok kuchi $t_1 = 10 \text{ s}$ vaqt davomida $I_0 = 0$ dan $I = 3 \text{ A}$ gacha bir tekisda o'sadi. o'tkazgichdan o'tgan zaryad Q aniqlansin.

68. Agar sim $U = 6 \text{ V}$ kuchlanish ostida turgan bo'lsa, uzunligi $l = 10 \text{ m}$ bo'lgan temir o'tkazgichdagi tok zichligi j aniqlansin. Temirni solishtirma qarshiligi

$$\rho = 7,8 \frac{\text{ohm} \cdot \text{m}}{\text{cm}^3}$$

69. Elektrostansiya shinalaridagi kuchlanish $U = 6,6 \text{ kV}$. Iste'molchi $l = 10 \text{ km}$ masofada turibdi. Agar yo'nalishdagi tok kuchi $I = 20 \text{ A}$ va simlardagi kuchlanishning yuqolishi 3 % dan oshmasligi lozim bo'lsa, qo'sh simli uzatish liniyasini yasash uchun ishlatish kerak bo'ladigan mis simning kesim yuzasi aniqlansin.

70. Balandligi $h = 20 \text{ sm}$ va asoslarining radiuslari $r_1 = 12 \text{ mm}$ va $r_2 = 8 \text{ mm}$

bo'lgan, turri kesik konus kurinishida Yasalgan grafit o'tkazgichning qarshiligi R xisoblansin. O'tkazgichning xarorati $t=20^{\circ}\text{S}$.

71. Qarshiligi $R_0=10\text{ Om}$ (0°S da) bo'lgan silindr shaklidagi mis o'tkazgichning bir uchida $t_1=20^{\circ}\text{C}$, boshkasida $t_2=400^{\circ}\text{S}$ xarorat saklanadi. Xarorat gradienti o'tkazgich o'ki buylab o'zgarmas deb xisoblab, o'tkazgichning qarshiligi topilsin.

72. G'altak va ampermetr ketma-ket ulanib tok manbaiga qo'shilgan. G'altak keskichlariga qarshiligi $R_B=1\text{ kOm}$ bo'lgan volt'metr birlashtirilgan. Ampermetrning ko'rsatishi $I=0,5\text{ A}$ va volt'metrniki $U=100\text{ V}$. G'altakning qarshiligi R aniqlansin. Agar volt'metrning qarshiligi xisobga olinmasa, xatolik g'altak qarshiligi aniq qiymatining necha foizini tashkil qiladi?

73. SHuntlangan ampermetr $I=10\text{ A}$ gacha tok kuchini o'lchaydi. Agar ampermetrning qarshiligi $R_a=0,02\text{ Om}$ va shuntning qarshiligi $R_{sh}=5\text{ mOm}$ bo'lsa, bu ampermetr shuntsiz qanday eng katta tok kuchini o'lchashi mumkin?

To'liq zanjir uchun Om qonuni

74. AkkumulYatorlar batareYasining ichki qarshiligi $r=3\text{ Om}$. Agar batareYa qisqichlaridagi potensiallar farqini $R_B=200\text{ Om}$ qarshilikli volt'metr bilan ulchab uni EYUK sifatida qabul kilinsa, xatolik EYUK ning xaqiqiy qiymatining necha foizini tashkil qiladi?

75. EYUK $\xi=1,5\text{ V}$ bo'lgan tok manbaiga $R=0,1\text{ Om}$ qarshilikli g'altakni uladilar. Ampermetr $I_1=0,5\text{ A}$ tok kuchini ko'rsatdi. Tok manbaiga xuddi shunday EYUK li Yana bitta tok manbaini ketma-ket ulaganlarida o'sha g'altakdagi tok kuchi $I=0,4\text{ A}$ bo'ldi. Birinchi va ikkinchi tok manbalarining ichki qarshiliklari r_1 va r_2 lar aniqlansin.

76. Xar biri uchtdan ketma-ket ulangan elementlardan iborat bo'lgan ikki gurux elementlar parallel ulangan. Xar bir elementning EYUK $\xi=1,2\text{ V}$, ichki qarshiligi $r=0,2\text{ Om}$. Hosil bo'lgan batareYa $R=1,5\text{ Om}$ tashqi qarshilik katta yopilgan. Tashqi zanjirdagi tok kuchi I topilsin.

77. Xar birining EYUK ξ va ichki qarshiligi r bo'lgan N ta bir xil galvanik element bor. SHu elementlardan p ta ketma-ket ulangan elementlardan iborat bo'lgan bir nechta parallel ulangan guruxlardan tashkil topgan batareYa tuzish talab kilinadi. P ning qanday qiymatida R qarshilikli tashqi zanjirdagi tok kuchi I maksimal bo'ladi? P ning shu qiymatida batareYaning ichki


qarshiligi R_i nimaga teng bo'ladi?

78. EYUK $\xi=1,5$ V va ichki qarshiligi $r=0,4$ Om bo'lgan 12ta element berilgan. Ulardan tuzilgan batareyadan qarshiligi $R=0,3$ Om bo'lgan tashqi zanjirda eng katta tok kuchini olish uchun bu elementlar qanday ulanishi kerak? Maksimal tok kuchi I_{max} aniqlansin: ,

79. Ikkita element $\xi_1=1,2$ V, $r_1=0,1$ Om; $\xi_2=0,9$ V, $r_2=0,3$ Om) bir xil ismli qutblari bilan ulangan. Tutashtiruvchi simlarning qarshiligi $R=0,2$ Om. Zanjirdagi tok kuchi I aniqlansin.

Kirxgof qoidalar


80. Ikkita akkumulyatorlar batareyasi ($\xi_1 = 10$ V, $r_1 = 1$ Om, $\xi_2=8$ V, $r_2=2$ Om va reostat($R=10$ Om) 1-rasmda ko'rsatilgandek qilib ulangan. Batareyalardagi va dagi tok kuchi topilsin.



1-рasm


kuchi I xisoblansin.

81. Agar $\xi_1=4$ V, $\xi_2=3$ V, $R_1=6$ Om, $R_3=1$ Om (3- rasm) bo'lsa, R_3 qarshilikli rezistordagi I_3 tok kuchi va rezistor uchlaridagi kuchlanish U_z aniqlansin. Tok manbalarining ichki qarshiliklari hisobga olinmasin.




2-рasm


82. EYUK lari $\xi_1 = 12$ V, $\xi_2 = 5$ V, $\xi_3 = 10$ V va $r=1$ Om bir xil ichki qarshilikli uchta batareya bir xil ismli qutblari bilan o'zaro ulangan. Tutashtiruvchi simlarning qarshiliklari juda kichik. Har bir batareyadan oqayotgan tok kuchi I aniqlansin.



3-рasm



4-рasm



5-рasm

83. EYUK lari $\xi_1=11$ V, $\xi_2=4$ V va $\xi_3=6$ V bo'lgan uchta tok manbai va $R_1=5$ Om, $R_2=11$ Om va $R_3=2$ Om qarshilikli uchta reostat 4- rasmda ko'rsatilgandek qilib ulangan. Reostatlardagi tok kuchlari I aniqlansin. Tok manbalarining ichki qarshiliklari hisobga olmaydigan darajada kichik.

84. $R_1=5$ Om, $R_2=1$ Om va $R_3=3$ Om li uchta qarshilik xamda $\xi_1 = 4$ V

EYUK li tok manbai 5-rasmda ko'rsatilgandek qilib ulangan. R_3 qarshilikdan mil (strelka) bilan ko'rsatilgan yo'nalishda $I=1$ A tok oqishi uchun zanjirning A va V nuqtalari orasiga ulanishi kerak bo'lgan tok manbaining EYUK ξ aniqlansin. Tok manbaining qarshiligi inobatga olinmasin.

Tokning ishi va quvvati

85. Ketma-ket ulangan lampochka va reostat tok manbaiga tutashtirilgan. Lampochka qisqichlaridagi kuchlanish $U=40$ V, reostatning qarshiligi $R=10$ Om. Tashqi zanjir $R=120$ Vt quvvat iste'mol qiladi. Zanjirdagi tok kuchi I topilsin.

86. AkkumulYatorlar batareyasining EYUK $\xi=12$ V, qisqa tutashuvning tok kuchi $I=5$ A. SHunday batareyaga ulangan tashqi zanjirda qanday eng katta quvvat P_{max} olish mumkin?

87. EYUK $\xi=2$ V va ichki qarshiligi $r=0,5$ Om bo'lgan akkumulYatorlar batareyasiga o'tkazgich uladilar. 1) Unda ajraladigan quvvat maksimal bo'lishi uchun lozim bo'ladigan o'tkazgichning R qarshiligi, 2) bu xolda o'tkazgichda ajraladigan quvvat P aniqlansin.

88. Batareyaning EYUK $\xi=20$ V. Tashqi zanjirning qarshiligi $R=2$ Om, tok kuchi $I=4$ A. Batareyaning FIK topilsin. Tashqi qarshilik R ning qanday qiymatida FIK 99 % ga teng bo'ladi?

89. AkkumulYatorlar batareyasining qisqichlariga isitgich ulangan. Batareyaning EYUK $\xi=24$ V, ichki qarshiligi $r=1$ Om. Zanjirga ulangan isitgich $R=80$ Vt quvvat iste'mol qiladi. Zanjirdagi tok kuchi I va isitgichning FIK xisoblansin.

90. Elektr kaynatgichning o'rami ikki bo'limga ega. Agar faqat birinchi bo'lim ulansa, unda suv $t_1=15$ min da kaynaydi. Faqat ikkinchisi ulanganda esa $t_2=30$ min da kaynaydi. Agar ikkala bo'lim xam ketma-ket; parallel ulansa suv necha minutdan keyin qaynaydi?

91. $I_1=3$ A tok kuchida akkumulYatorlar batareyasining tashqi zanjirida $P_1=18$ Vt quvvat ajraladi. $I_2=1$ A tok kuchida esa mos ravishda $P_2=10$ Vt. Batareyaning EYUK ξ va ichki qarshiligi r aniqlansin.

92. Qarshiligi $R=100$ Om bo'lgan o'tkazgichdagi tok kuchi $t=30$ s davomida $I_0=0$ dan $I_{tax}=10$ A gacha bir tekisda o'sadi. SHu vaqt davomida o'tkazgichda ajralgan issiklik miqdori Q aniqlansin.

93. Qarshiligi $R=12\text{ Om}$ bo'lgan o'tkazgichdagi tok kuchi $t=10\text{ s}$ davomida $I_0=5\text{ A}$ dan $I=0$ gacha bir tekisda kamaYadi. Ko'rsatilgan vaqt davomida shu o'tkazgichda kancha issiqlik miqdori Q ajraladi?

94. $R=3\text{ Om}$ qarshilikli o'tkazgichdan kuchi ortib borayotgan tok oqmoqda. $t=8\text{ s}$ vaqt davomida o'tkazgichda ajralgan issiqlik miqdori $Q=200\text{ J}$. SHu vaqt davomida o'tkazgichdan oqib o'tgan zaryad miqdori aniqlansin. Boshlangich deb qabul kilingan vaqt onida o'tkazgichdagi tok kuchi nolga teng.

95. $R=15\text{ Om}$ qarshilikli o'tkazgichdagi tok kuchi $t=5\text{ s}$ vaqt davomida $I_0=0$ dan muayyan maksimal qiymatgacha bir tekisda o'sadi. Bu vaqtda o'tkazgichda $Q=10\text{ kJ}$ issiqlik miqdori ajraldi. SHu vaqt oraligi uchun o'tkazgichdagi tok kuchining urta chiymati $\langle I \rangle$ topilsin.

96. O'tkazgichdagi tok kuchi $t=10\text{ s}$ vaqt davomida $I_0=0$ dan biror maksimal qiymatgacha bir tekisda ortadi. Bu vaqt ichida o'tkazgichda $Q=1\text{ kJ}$ issiqlik miqdori ajraldi. Agar o'tkazgichning qarshiligi $R=3\text{ Om}$ bo'lsa, undagi tokning usish tezligi aniqlansin.

Vakuumdagi magnit maydon induksiyasi va kuchlanganligi orasidagi bog'lanish

97. Magnit maydonning kuchlanganligi $H=79,6\text{ kA/m}$, Vakuumdagi shu maydonning magnit induksiYasi B aniqlansin.

98. Maydonning vakuumdagi magnit induksiYasi $B=10\text{ mTl}$ Magnit maydonning kuchlanganligi H aniqlansin.


99. Agar magnit maydonning vakuumdagi induksiYasi $S_0=0,05\text{ Tl}$ bo'lsa, uning kuchlanganligi H hisoblansin.

Aylanma tokning va solenoidning maydoni

100. $I=10\text{ A}$ tok oqayotgan ingichka xalqa markazidagi magnit induksiYa topilsin. Halqaning radiusi $r = 5\text{ sm}$.

101. Radiusi $r=16\text{ sm}$ bo'lgan juda kalta g'altak chulg'amidan $I=5\text{ A}$ tok oqadi. Agar g'altak markazidagi magnit maydonning kuchlanganligi $H=800\text{ A/m}$ bo'lsa, g'altakdagi o'ramlar soni qancha?

102. Radiusi $r = 8\text{ sm}$ bo'lgan aylanma o'ram markazidagi magnit maydon kuchlanganligi $H= 30\text{ A/m}$. H_1 kuchlanganlik



aniqlansin.

103. $R=0,2$ m radiusli ingichka o'tkazuvchan halqadan oqayotgan tok kuchi I ning qanday qiymatida halqaning barcha nuqtalaridan teng $r=0,3$ m masofada joylashgan nuqtadagi magnit induksiya $S=20$ mKTl bo'ladi?


104. $R=10$ sm radiusli ingichka halqa ko'rinishidagi o'tkazgichdan tok oqmoqda. Maydonning nuqtadagi magnit induksiya $S=1$ mKTl bo'lsa, kuchi/nimaga teng ($\beta=10^\circ$)? Burchak $\beta=10^\circ$.

105. Uzunligi $l=20$ sm bo'lgan g'altak $H=100$ o'ramdan iborat. G'altak chulg'amidan $I=5$ A tok oqmoqda. G'altakning diametri $d=20$ sm. G'altak uchidan $a=10$ sm masofada va uning o'kida yotuvchi nuqtadagi magnit induksiya V aniqlansin.

106. Uzun to'g'ri solenoid o'ramlari biriga zich jipslashib turadigan qilib, diametri $d=0,5$ mm bo'lgan simdan o'ralgan tok kuchi $I=4$ A bo'lganda solenoid ichidagi magnit maydon kuchlanganligi N qanday bo'ladi?

107. Diametri $d=10$ sm bo'lgan g'altak chulg'ami zich jipslashib turgan ingichka sim o'ramlaridan iborat. Urtasidagi magnit induksiya uzunlik birligida shuncha o'ramga ega bo'lgan cheksiz solenoid magnit induksiya S dan $0,5\%$ dan ko'pga farq qilmasligi uchun g'altakning minimal uzunligi $l_{\min}$ qanday bo'lishi lozim? Chulg'amlardan oqayotgan tok kuchlari har ikkala holda ham bir xil.

108. Solenoid chulg'ami ingichka simdan birbiriga zich jipslashib turadigan o'ramlardan iborat qilib yasalgan. G'altakning uzunligi $l=1$ m, uning diametri $d=2$ sm. Chulg'amdan tok oqmoqda. Magnit induksiya cheksiz uzun solenoidning formulasi bo'yicha $0,1\%$ dan oshmaydigan xatolik bilan hisoblanishi mumkin bo'lgan, o'q chizig'idagi qism uchastkaning o'lchamlari aniqlansin.



9-rasm

109. Kengligi $l=40$ sm bo'lgan ingichka tasma radiusi $R=30$ sm bo'lgan o'ramadek burab qo'yilgan. Tasmadan kengligi bo'ylab bir tekis taqsimlangan $I=200$ A tok oqmoqda (9-rasm). Quyidagi ikki hol uchun o'rama o'qidagi magnit induksiya B aniqlansin: 1) o'rta nuqtasida; 2) o'rama qirrasi bilan mos keluvchi nuqtada.

To'g'ri tokning maydoni

110. To'g'ri cheksiz uzun o'tkazgichdan $I=50$ A tok oqmoqda Utkazgichdan

$r=5\text{sm}$ uzaklikda turgan nuqtadagi magnit induksiya V aniqlansin.

111. Ikkita uzun parallel sim bir-biridan $r = 5 \text{ sm}$ masofada turibdi. Simlarning har biridan qarama-qarshi yo'nalishlarda $I=10 \text{ A}$ dan tok oqmoqda. Simlarning biridan $r_1 = 2 \text{ sm}$ va boshqasidan $r_2 = 3 \text{ sm}$ masofada turgan nuqtadagi magnit maydon kuchlanganligi N topilsin.

112. Ikkita uzun parallel sim orasidagi masofa $d=5\text{sm}$. Simlarning har biridan bir xil yo'nalishda bir xil $I = 30 \text{ A}$ tok oqmoqda. Simlarning biridan $r_1=4 \text{ sm}$ va boshqasidan $r_2=3 \text{ sm}$ masofada turgan nuqtadagi magnit maydon kuchlanganligi N topilsin..

113. Ikkita cheksiz uzun to'g'ri parallel simlardan qarama-karshi yo'nalishlarda $I_1 = 50 \text{ A}$ va $I_2 = 100 \text{ A}$ toklar oqmoqda. Simlar orasidagi masofa $d = 20 \text{ sm}$. Birinchi simdan $r_1=25\text{sm}$ va ikkinchisidan $r_2=40 \text{ sm}$ uzoqlikda turgan nuqtadagi magnit induksiya V aniqlansin.

114. Ikkita cheksiz uzun to'g'ri parallel simlardan bir xil yo'nalishda $I_1 = 20 \text{ A}$ va $I_2=30 \text{ A}$ toklar oqmoqda. Simlar orasidagi masofa $d=10\text{sm}$. Har ikkala simdan ham bir xil $r=10 \text{ sm}$ uzaklikda joylashgan nuqtadagi magnit induksiya V hisoblansin.

115. Cheksiz uzun to'g'ri sim to'g'ri burchak ostida bo'kilgan. Simdan $I=100 \text{ A}$ tok oqmoqda. Burchak bissektrisasida yotuvchi va burchak uchidan $a=10 \text{ sm}$ uzoqlikda joylashgan nuqtalardagi magnit induksiya V hisoblansin

116. $\alpha=120^\circ$ burchak ostida bo'kilgan cheksiz uzun to'g'ri simdan $I=50 \text{ A}$ tok okadi. Burchak bissektrisasida yotuvchi va uning uchlaridan $a=5 \text{ sm}$ uzoqlikda joylashgan nuqtalardagi magnit induksiya V topilsin.

117. Teng tomonli uchburchak ko'rinishdagi konturdan $I=40 \text{ A}$ tok oqmoqda. Uchburchak tomonining uzunligi $a=30 \text{ sm}$. Balandliklar kesishadigan nuqtadagi magnit induksiya V aniqlansin.

118. Kvadrat ko'rinishdagi kontur bo'ylab $I=50 \text{ A}$ tok oqmoqda. Kvadrat tomonining uzunligi $a=20 \text{ sm}$. Diagonallar kesishgan nuqtadagi magnit induksiya V aniqlansin.

119. To'g'ri to'rtburchak ko'rinishida qayrilgan ingichka simdan $I=60 \text{ A}$ tok oqmoqda. To'g'ri to'rtburchak tomonlarining uzunliklari $a=30 \text{ sm}$ va $b = 40 \text{ sm}$. Diagonallar kesishgan nuqtadagi magnit induksiya V aniqlansin.

120. Ingichka sim to'g'ri oltiburchak ko'rinishida bo'kilgan. Oltiburchak tomonining uzunligi $d=10 \text{ sm}$. Agar simdan $I=25 \text{ A}$ tok oqayotgan bo'lsa, oltiburchak

markazidagi magnit induksiya B aniqlansin.

121. Ingichka sim halqadan tok oqmoqda. O'tkazgichdagi tok kuchini o'zgartirmasdan unga kvadrat shaklini berdilar. Kontur markazidagi magnit induksiya necha marta o'zgaradi?

Harakatlanuvchi zaryadning maydoni

122. G'alayonlanmagan vodorod atomidagi elektron Yadro atrofida $r = 53 \text{ pm}$ radiusli aylana bo'ylab harakatlanmokda. Ekvivalent aylanma tok kuchi I va aylana markazidagi maydon kuchlanganligi B hisoblansin.

123. $v = 10 \text{ mm/s}$ tezlik bilan to'g'ri chiziqli harakat qilayotgan elektronning traektoriyadan $d = 1 \text{ nm}$ masofada turgan nuqtada hosil qiladigan maydonining maksimal magnit induksiya $B_{\max}$ aniqlansin.

124. To'g'ri chiziqli harakat qilayotgan elektronning traektoriyasidan $d = 10 \text{ nm}$ masofada magnit induksiyaning maksimal qiymati $B_{\max} = 160 \text{ mT}$. Elektronning tezligi v aniqlansin.

